

LANDSHAFTLARDA IQLIM RESURLARIDAN FOYDALANISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI

R.Usmanova – Qarshi davlat universiteti dotsenti

F.A.Berdiyeva - Qarshi davlat universiteti talabasi. O'zbekiston

Annotatsiya: Maqolada Qashqadaryo havzasi tekislik agroiklim rayonlari guruhi va agroiklim elementlarining miqdoriy ko'rsatkichlarining joyning geografik o'rni va relyefiga bog'liq holda meteorologik elementlarning bir-biridan farq qilishining geografik asoslariga e'tibor qaratilgan. Qashqadaryo havzasining tekislik qismini uchta yani Quyi Qashqadaryo, G'uzor va Shahrisabz agroiklimiy rayonlarga ajratilishi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: agroiklim, relyef, harorat, atmosfera bosimi, havoning namligi, bug'lanish, yog'in, zonallik, arid, gumid, ekstragumid.

ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КЛИМАТИЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В ЛАНДШАФТАХ

Р.Усманова – доцент Каршинского государственного университета

Ф.А.Бердиева — студентка Каршинского государственного университета. Узбекистан

Аннотация: В статье основное внимание уделяется географическому обоснованию того, как группа равнинных агроклиматических районов бассейна Кашкадарьи и количественные показатели агроклиматических элементов отличаются друг от друга по метеорологическим элементам в зависимости от географического положения и рельефа местности. Описано деление равнинной части Кашкадарьинского бассейна на три агроклиматических района: Нижний Кашкадарьинский, Гузарский и Шахрисабзский.

Ключевые слова: агроклимат, рельеф, температура, атмосферное давление, влажность воздуха, испарение, осадки, зональность, арид, гумид, экстрагумид.

GEOGRAPHICAL FOUNDATIONS OF THE USE OF CLIMATIC RESOURCES IN LANDSCAPES

R.Usmanova – Associate Professor, Karshi State University

F.A.Berdiyeva – Student, Karshi State University. Uzbekistan

Abstract: The article focuses on the geographical justification of how the group of lowland agro-climatic regions of the Kashkadarya basin and the quantitative indicators of agro-climatic elements differ from each other in meteorological elements depending on the geographical location and terrain. The division of the lowland part of the Kashkadarya basin into three agro-climatic regions is described: Nizhny Kashkadarya, Guzar and Shakhrisabz.

Key words: agroclimate, relief, temperature, atmospheric pressure, humidity, evaporation, precipitation, zonality, arid, humid, semigumid

Kirish. Mamlakatimizda iqtisodiyotning muhim tarmoqlari orasida qishloq xo'jaligi alohida o'rin tutadi. Qishloq xo'jaligini hududiy jihatdan ixtisoslashtirish, oqilona joylashtirish va uni yanada rivojlantirish muammolarini o'rganish ham iqtisodiy, ham ijtimoiy ahamiyatga egadir. Hozirgi zamon talabidan kelib chiqqan holda iqlimning global o'zgarishi, kompyuter va GIS-texnologiyasining rivojlanishi O'zbekiston hududini agroiklimiy rayonlashtirishda katta ahamiyatga molik masaladir. Landshaftshunoslikning amaliy jihatlaridan biri, asosan, qishloq xo'jaligini rivojlantirish talablaridan kelib chiqqan holda landshaftlarni ta'riflovchi turli ma'lumotlar bilan ta'minlab turish zarurdir. Shunday ma'lumotlarga, masalan, landshaft xaritalari, tabiiy geografik rayonlashtirish natijalari qatorida landshaftlarning iqlimining o'ziga xos jihatlari batafsil ta'rifi beriladi. Landshaftlarga taalluqli ma'lumotlarni qishloq xo'jaligi maqsadlarida baholash arid iqlimli hududlarda ayniqsa dolzarbdir.

Kirish. Amaliy landshaftshunoslikda boshqa tarmoqlar kabi qishloq xo'jaligining turli xil amaliy masalalarini hal etishda landshaft haqidagi ta'limotning nazariy tamoyillari va usullaridan foydalanish va tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Landshaftlarni ma'lum bir maqsad uchun baholashning asosiy mazmuni kishilik jamiyatining talablaridan kelib chiqqan holda, landshaftlarning qulay yoki noqulayligi darajasini aniqlab berishdan iboratdir.

Qishloq xo'jaligi nuqtai-nazaridan iqlimning eng asosiy elementlari hisoblangan havo harorati, yog'in-sochin miqdori va shamollar eng muhim ahamiyat kasb etadi. Havo harorati haftalik, oylik va yillik guruhlardan tashkil topgan. Qishloq xo'jaligida mutlaq sovuq va issiq harorat, bahor oylarida tushadigan eng oxirgi sovuq, kuz faslida tushadigan eng birinchi sovuq ham katta o'rin tutgani uchun albatta hisobga olinadi. Iqlim resurslari ayniqsa qishloq xo'jaligini rivojlantirish sharoitlarini belgilovchi asosiy tabiiy resurslardan biridir. Shu sababli iqlimning bevosita qishloq xo'jaligida foydalaniladigan elementlari (radiatsiya, issiqlik va namlik) agroiklim resurslarini hosil qiladi.

Qashqadaryo havzasi tekislik, hamda tog'li hududlar doirasida joylashgan. Hududda O'rta Osiyoning agroiklimiy rayonlashtirish tuzilmasida tekislik

agroiklim rayonlari guruhi va tog'lik agroiklimiy rayonlari guruhi alohida-alohida ajratiladi. Buning sababi negizida tekisliklarda namlik va issiqlikning hududiy o'zgarish omili, tog'larda esa iqlim elementlarining balandlik zonallik qonuniyati asosida tarqalish yotadi. O'rta Osiyo agroiklimshunoslik ilmining asoschilaridan biri L.N. Babushkin Qashqadaryo havzasining tekislik qismini uchta yani Quyi Qashqadaryo, G'uzor va Shahrisabz agroiklimiy rayonlariga ajratadi [1; – 160 c.].

Shunday ekan, bu ajratilgan agroiklim rayonlarida meteorologik elementlarning muayyan ko'rsatkichlarida namoyon bo'lish shart- sharoitlari bir-biriga o'xshamaydi. Garchi bu uchta agroiklim rayonlari bir xil tekislik relyefining ustunligiga ega bo'lsada harorat va namlikning o'zaro nisbatini shakllantiradigan joyning geografik kengligi, dengiz sathidan balandligi, havo oqimlari yo'lida joylashganligi va boshqa iqlimiy omillar tasir ko'rsatishi jihatdan bir-biridan farq qiladi. Darhaqiqat, o'simlik va hayvonot hayoti uchun zarur bo'lgan yorug'lik, issiqlik va namlik kabi birinchi darajali omillarga shamol, bulutlilik, atmosfera namligi, qurg'oqchilik kabi ikkinchi darajali omillar tasir ko'rsatadi.

O'simlik va hayvonlarning rivojlanishi, ular mavjud bo'lgan muhitning haroratiga bevosita bog'liq bo'ladi. Organizmning rivojlanishi boshlanadigan eng past harorat (shu haroratdan past bo'lsa rivojlanmaydi) biologik nol deb ataladi. Rivojlanish boshlangan harorat ko'rsatkichidan to rivojlanishning yuqori darajasiga, organizmning o'ziga berilgan barcha funksiyalarini-(unib chiqish, gullash, o'sish, urug' yetilishi) bajarish uchun zarur bo'lgan harorat yig'indisi samarali haroratlar deyiladi. Odatda ko'pchilik organizmlarning, masalan, yovvoyi o'tlarning rivojlanishi +5 daraja haroratdan boshlanadi. Organizmlar o'ziga berilgan biror funksiyasini bajarishi (masalan, daraxt mevasining pishib yetilishi) uchun harorat yig'indisi necha kunda to'planishi quyidagi formula orqali hisoblab topiladi.

$$P=E/T-t$$

Bunda P-kunlar soni, E-harorat summasi, T-mazkur organizm rivojlanish davrining doimiy harorati, t - rivojlanishning eng past harorati. Boshqacha aytganda, doimiy haroratni ayirib, zarur harorat yig'indisi ayirmaga bo'linib, necha

kunda bu o'simlik yetilishi aniqlanadi. Uni tabiiy namlanishi bilan bog'lanadi. Tushadigan yog'in miqdori o'simliklarning o'sishi uchun ularning ildizlari orqali qabul qilishidan tashqari yer ustidan bug'lanishga ham sarflanadi. Organizmlar rivojlanishi uchun hududning tabiiy namlanish yani o'simliklarning namlik bilan taminlanishi sohasida V. Kyoppen, YE.Martonn, R. Lant S.S. Neustruyev va boshqa mashhur geograf olimlar tadqiqot olib borib, "yog'in omili" ekologik tushunchasi ko'rsatkichini ishlab chiqqanlar [1; – 160 c.].

G.T. Selyaninov 1930 yillarda gidrotermik koyeffitsent (namlik –issiqlik nisbati samarasi) ko'rsatkich tushunchasini ishlab chiqdi. Yovvoyi va madaniy o'simliklar asosan sutkalik harorat +10 darajadan yuqori bo'lganda jadal rivojlanishini hisobga olib, shu ko'rsatkich eng past harorat sifatida qabul qilingan. +10 darajadan yuqori harorat bilan taminlangan yilning issiq oylaridagi yog'in miqdorining shu oylardagi harorat yig'indisini o'n baravarga kamaytirgan holdagi nisbatini gidrotermik koyeffitsenti deb atagan. Agar gidrotermik koyeffitsent birdan kam bo'lsa, vegetatsiya davrida nam yetishmasligi, qurg'oqchilik (arid) sharoit, birdan ikkigacha namlik yetarli (gumid), ikkidan yuqori bo'lsa namlanish (ekstragumid) ortiqcha bo'lgan muhit ro'y beradi. Gidrotermik ko'rsatkich muhim agroiklim ekologik omil bo'lganligidan, bu sohada rus olimlari A. L. Shatskiy, N.N.Ivanov va boshqa tadqiqotchilar ham sug'orma dehqonchilik hududlari misolida tadqiqot olib borganlar. Shuni aytish lozimki, jazirama issiq bo'ladigan O'zbekistonning tekislik qismida ob-havo rejimi hamma vaqt ham o'simliklar uchun yetakchi omil bo'lavermasligi mumkin, chunki ko'pincha yovvoyi o'simliklar bu davrda o'z vegetatsiyasini nihoyasiga yetkazadilar [1; – 160 c. 3; 46-51 b.].

Tekislik rayonlari Qashqadaryo havzasining mutlaq balandligi 280 m dan 500 m gacha bo'lgan g'arbiy qismini o'z ichiga oladi. Tekisliklar uchun cho'l landshaftlarini tarkib topishiga imkon beradigan juda issiq iqlim sharoitlari xos. Issiqlik sharoitlariga ko'ra a) juda issiq (faol haroratlar jami 5000⁰ dan ziyod) va b) mo'tadil issiq (4500⁰–5000⁰) zonalarga mansub yanvarning o'rtacha harorati tekislikning katta qismida 0⁰ dan yuqori, faqat Qarshi shahri va uning atrofida -

2,0⁰, mutlaq minimum (o'rtachasi) -25 -29⁰ gacha pasayadi. Haroratlarning mutlaq maksimumi 47–49⁰, yillik yog'inlarning miqdori 150–200 mm. Iqlim sharoitlarining ichki tafovvtlariga ko'ra tekisliklarda: 1) Sandikli va 2) Qarshi agroiklim rayonlari ajratiladi [2; 132-136 b. 4; 88-92 b].

Masalan, Nishon tumanida sug'orma dehqonchilik qilinadigan maydonlar dengiz sathidan 280-450 metr balandlikda joylashganligi sababli juda issiq va quruq gidrometrik zonaga kiradigan, termik resurslar 5300-4900⁰ GTK 0,5 dan kichik bo'ladi. Bunday agroiklim sharoiti paxtaning kechpishar, ingichka tolali navlarini yetishtirish uchun juda qulaydir [4; 88-92 b.].

Yuqoridagilarni tahlil qilgan holda, quyidagi xulosaga keldik. Qashqadaryo havzasining tekislik qismi sug'orma dehqonchilikning eng qulay tarmoqlarini kengaytirish imkonini beradi. Paxta bilan bir qatorda donchilik, bog'dorchilik, uzumchilik, polizchilik, yem-xashak ekinlari va sug'orma agroiklim resurslari

mavjudligi bilan tariflanadi. Demak, landshaftlarni rejalashtirishda har bir landshaftning o'ziga xos tabiiy muhitni faqat o'rganibgina yoki baholabgina qolmasdan, balki tabiiy muhitni yaxshilash, samaradorligini oshirish, tabiiy resurslardan to'g'ri va oqilona foydalanishning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqishda faol ishtirok etishni ta'minlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Бабушкин Л.Н., Когай Н.А., Закиров Ш.С. Агроклиматические ресурсы сельского хозяйства Узбекистана. – Т.: Мехнат, 1985. – 160 с.
2. Usmanova R. O'rta Osiyo cho'llarining landshaft xususiyatlari //QarDU xabarlari. Qarshi . 2018. № 4. 132-136 b.
3. Usmanova R.,Xushmurodov F. Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligini optimallashtirishning ekologik-geografik jihatlari// O'zbekiston Zamini ilmiy –amaliy va innovatsion jurnal ISSN 2181-9955 № 2. 46-51 b.
4. Usmanova R.,Xushmurodov F. Qarshi cho'li landshaftlarining geoekologik jihatlari // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari Toshkent-2021. 88-92 b.

5. Усманова Р. История изучения ландшафтов бассейна Кашкадарьи. //ИУСЕР Экономика и социум международный научно- практический журнал № 6(109) . 2023 г. www.iupr.ru 1090-1095 с.